

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart holatiga viloyat doimiy aholisining soni **4 079,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 84,8 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko'paydi. Shundan, 2 319,9 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %) va 1 759,6 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %) istiqomat qiladi.

### Viloyat hududi va aholi zichligi (2024- yil 1- aprel holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,758</b>	<b>4 079,5</b>	<b>603,5</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877- yil	0,100	323,3	3 233,0
Qo'qon	X asr	0,064	309,5	4 835,9
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,264	101,6	384,8
Marg'ilon	X asr	0,052	254,4	4 892,3
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926- yil	0,631	229,5	363,7
Qo'shtepa	16.04.1952- yil	0,366	209,3	571,9
Bag'dod	31.12.1964- yil	0,333	234,1	703,0
Buvayda	26.12.1973- yil	0,279	248,3	890,0
Beshariq	29.09.1926- yil	0,774	243,6	314,7
Quva	10.02.1939- yil	0,438	276,8	632,0
Uchko'prik	29.09.1926- yil	0,271	242,7	895,6
Rishton	09.01.1967- yil	0,307	217,8	709,4
So'x	27.02.1990- yil	0,221	84,2	381,0
Toshloq	12.04.1973- yil	0,243	218,6	899,6
O'zbekiston	17.04.1963- yil	0,674	237,3	352,1
Farg'ona	22.02.1964- yil	0,602	222,5	369,6
Dang'ara	07.12.1970- yil	0,427	178,0	416,9
Furqat	09.04.1992- yil	0,305	127,7	418,7
Yozyovon	27.12.1980- yil	0,407	120,3	295,6

Farg'ona viloyatining ma'muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15- yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,758 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg'iziston Respublikasining O'sh hamda Batken viloyatlari va g'arbdan Tojikiston Respublikasining Xo'jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So'x tumani hamda Farg'ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho'ng'ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg'iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 999 ta qishloq aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **4 079,5** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahridir.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

### Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot


(2024- yilning 1- aprel holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 079,5</b>	<b>2 319,9</b>	<b>1 759,6</b>	<b>102,1</b>	<b>56,9</b>	<b>43,1</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	323,3	323,3	-	102,3	100,0	0,0
Qo'qon	309,5	309,5	-	101,5	100,0	0,0
Quvasoy	101,6	57,0	44,6	102,2	56,1	43,9
Marg'ilon	254,4	254,4	-	102,7	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	229,5	172,2	57,3	102,1	75,0	25,0
Qo'shtepa	209,3	80,6	128,7	102,2	38,5	61,5
Bag'dod	234,1	119,6	114,5	102,2	51,1	48,9
Buvayda	248,3	113,2	135,1	102,3	45,6	54,4
Beshariq	243,6	85,3	158,3	101,9	35,0	65,0
Quva	276,8	128,0	148,8	101,9	46,2	53,8
Uchko'prik	242,7	46,4	196,3	102,2	19,1	80,9
Rishton	217,8	138,8	79,0	102,2	63,7	36,3
So'x	84,2	53,1	31,1	102,3	63,1	36,9
Toshloq	218,6	51,4	167,2	101,5	23,5	76,5
O'zbekiston	237,3	108,0	129,3	102,5	45,5	54,5
Farg'ona	222,5	137,6	84,9	102,0	61,8	38,2
Dang'ara	178,0	39,3	138,7	102,5	22,1	77,9
Furqat	127,7	30,5	97,2	102,2	23,9	76,1
Yozyovon	120,3	71,7	48,6	102,1	59,6	40,4

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 323,3 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 276,8 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 %ga o‘sgan).

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

(2024- yil 1-aprel holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




### Yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Tug‘ilganlar	23,4	22,9	23,8	22,6
O‘lganlar	4,3	4,2	4,3	4,1
Nikohlar, <i>mingta</i>	4,5	4,1	4,6	4,1
Ajralishlar, <i>mingta</i>	1,7	1,2	1,4	1,2

## Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2024- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



**Tug'ilish darajasi.** 2024- yilning yanvar–mart oylari tug'ilganlar soni 22,9 ming kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (23,4 ming kishi) nisbatan 0,5 ming kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 22,6 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining kamayishi viloyatning Qo'shtepa tumanida 28,2 dan 25,5 promille, Rishton tumanida 22,8 dan 21,8 promillega, Bag'dod tumanida 24,2 dan 23,6 promillega kuzatildi.


**O‘lim darajasi.** 2024- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni **4 168** kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (**4 257** kishi) nisbatan 89 kishiga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti **4,1** promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-mart oylarida **4,3** promille).

O‘lganlar sonining kamayishi viloyatimizning ba’zi shahar va tumanida yuz bergan bo‘lib, eng ko‘p o‘lim Farg‘ona shahrida **389** kishidan 4,9 promille, Qo‘qon shahrida **315** kishidan 4,1 promillega kuzatildi, Quva tumanida **277** kishidan 4,0 promille, Marg‘ilon shahrida **285** kishidan 4,5 promille, O‘zbekiston tumanida **238** kishidan 4,0 promille.

O‘lganlar umumiy sonining **62,3** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,9** %i o‘sma kasalliklaridan, **3,8** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **5,1** %i baxtsiz hodisadan, **6,0** %i nafas olish organlari kasalliklaridan va **13,9** %i boshqa sabablarga ko‘ra vafot etgan.

### O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2024- yilning 1-aprel holatiga, %da)



**Nikohlar va ajralishlar.** 2024- yilning yanvar-mart oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **4 104** ta nikohlar va **1 188** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 4,1 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 4,6 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida -1,4) to‘g‘ri keladi.

## Yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>4 474</b>	<b>4 104</b>	<b>1 657</b>	<b>1 188</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	320	278	181	137
Qo‘qon	342	353	161	127
Quvasoy	91	74	53	32
Marg‘ilon	177	172	88	64
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	289	241	74	59
Qo‘shtepa	166	141	79	34
Bag‘dod	241	210	98	61
Buvayda	236	212	74	60
Beshariq	414	347	95	79
Quva	291	268	83	54
Uchko‘prik	239	200	105	61
Rishton	307	256	99	60
So‘x	226	257	31	33
Toshloq	187	154	61	56
O‘zbekiston	282	249	91	79
Farg‘ona	246	250	95	71
Dang‘ara	211	205	72	56
Furqat	119	149	64	39
Yozyovon	90	88	53	26

**Migratsiya.** Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatga ko‘chib kelganlar soni **2 194** kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa **2 893** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus **699** kishiga (2023-yilning shu davrida minus **717** kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qo‘qon sh (minus **200**) va Marg‘ilon shahrida (minus **365**) kuzatildi.

## Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
<b>Viloyat</b>	<b>2 101</b>	<b>2 194</b>	<b>2 818</b>	<b>2 893</b>	<b>-717</b>	<b>-699</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	951	866	627	592	324	274
Qo'qon	15	77	279	277	-264	-200
Quvasoy	93	118	80	91	13	27
Marg'ilon	8	11	233	376	-225	-365
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	38	58	96	91	-58	-33
Qo'shtepa	124	206	100	74	24	132
Bag'dod	5	3	94	75	-89	-72
Buvayda	43	33	89	78	-46	-45
Beshariq	77	33	188	172	-111	-139
Quva	62	82	179	172	-117	-90
Uchko'prik	39	20	95	94	-56	-74
Rishton	54	51	133	133	-79	-82
So'x	30	97	7	34	23	63
Toshloq	77	96	102	113	-25	-17
O'zbekiston	94	14	142	118	-48	-104
Farg'ona	133	204	164	199	-31	5
Dang'ara	118	103	63	93	55	10
Furqat	98	89	88	62	10	27
Yozyovon	42	33	59	49	-17	-16

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 723,2 ming so'mni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga nisbatan 21,5 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida 5 023,5 ming so'mni, Qo'qon shahrida 4 167,4 ming so'mga to'g'ri keldi.


### Yanvar-mart oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi

(ming so'mda)



### O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 9 753,1 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 3 506,3 sanoatda 4 347,7 va ta‘lim sohasida 3 093,8 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

### **O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi\*\***

(yanvar-mart oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2023-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati %
<b>Viloyat</b>	<b>3 065,0</b>	<b>3 723,2</b>	<b>121,5</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	4 221,3	5 023,5	119,0
Qo‘qon	3 519,4	4 167,4	118,4
Quvasoy	2 983,2	3 833,0	128,5
Marg‘ilon	2 636,1	3 141,4	119,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 162,4	2 840,6	131,4
Qo‘shtepa	2 715,1	3 108,2	114,5
Bag‘dod	2 600,7	2 967,1	114,1
Buvayda	2 496,0	3 007,7	120,5
Beshariq	2 199,3	2 718,9	123,6
Quva	2 379,9	2 790,3	117,2
Uchko‘prik	2 386,1	3 390,1	142,1
Rishton	2 260,0	2 983,4	132,0
So‘x	2 607,6	3 213,3	123,2
Toshloq	3 245,2	4 025,6	124,0
O‘zbekiston	2 534,6	3 031,9	119,6
Farg‘ona	2 369,9	2 762,7	116,6
Dang‘ara	2 474,1	3 079,5	124,5
Furqat	2 627,9	2 983,5	113,5
Yozyovon	2 546,5	3 089,3	121,3

\*\**(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*